



**“iSpace’da ko‘proq bonus”
aksiyasini o‘tkazish qoidalari**

*“AVO bank” AJ Boshqaruvi majlisining 2026-yil 07-maydagi 12/26 -son bayonnomasi bilan
tasdiqlangan*

2026-yil 08-maydan kuchga kiradi

"iSpace'da ko'proq bonus" aksiyasini o'tkazish QOIDALARI

1. Atama va ta'riflar

Aksiya – Mijozlarning bankka sodiqligini shakllantirish va oshirishga qaratilgan Sodiqlik dasturi doirasida o'tkaziladigan "iSpace'da ko'proq bonus" aksiyasi bo'lib, unda Aksiya Ishtirokchisiga Qoidalarda belgilangan shartlarni bajarish evaziga Bonuslar olish taklif etiladi.

Bank – "AVO bank" aksiyadorlik jamiyati ("AVO bank" AJ), STIR 207257279, manzil: 100060, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 29A, telefon: +998 78 888-78-78, elektron pochta manzili: info@avo.uz, Aksiya tashkilotchisi hisoblanadi.

Bosh shartnoma – "AVO bank" AJda jismoniy shaxslarga keng qamrovli bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Bosh shartnoma.

Kartani foydalanishga taqdim etish to'g'risidagi Shartnoma – Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan Bank Kartasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma bo'lib, u tegishli Ariza, Tarif rejasi va Bosh shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlarini o'z ichiga oladi.

Karta – "AVO platinum" tarif rejasi bo'yicha Bank tomonidan Mijozga Kartani foydalanish uchun taqdim etish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq chiqarilgan bank kartasi.

Mijoz/Aksiya ishtirokchisi – Bank bilan Bosh shartnoma tuzgan, Bank mobil ilovasida Raqamli identifikatsiyadan o'tgan va Bank kartasini olgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

Umumiy shartlar – "AVO bank" AJ Sodiqlik dasturining umumiy shartlari bo'lib, Bankning Sodiqlik dasturi shartlarini belgilaydigan hujjatdir.

Xarid – Aksiya ishtirokchisi tomonidan Karta orqali shaxsiy mablag'lari va (yoki) Kredit bo'yicha taqdim etilgan mablag'lar hisobidan Texnika yoki Xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish operatsiyasi.

Qoidalar – Bank mijozlarining Aksiyada ishtirok etish shartlari va tartibini belgilab beruvchi mazkur hujjat.

Sodiqlik dasturi (Dastur) – Bank mijozlarining sodiqligini saqlash maqsadida to'lanadigan va/yoki taqdim etiladigan Bonuslarni qo'llash, hisoblash va ulardan foydalanish qoidalari.

Texnika – iSpace tomonidan sotiladigan elektron texnika va boshqa tovarlar.

Xizmatlar – iSpace tomonidan amalga oshiriladigan servis xizmati, ta'mirlash va boshqa xizmatlar.

iSpace – O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Botir Zokirov ko'chasi, 7-uy manzilida joylashgan "iSpace" elektron texnika do'koni, shuningdek, <https://ispace.uz/> saytidagi internet-do'kon orqali savdoni amalga oshiruvchi "ASBC ENTITY" MChJ (STIR 309120406).

Qoidalarda bosh harf bilan yozilgan boshqa atamalar Bosh shartnoma va Umumiy shartlardagi kabi ma'noga ega.

2. Umumiy qoidalar

2.1. Mazkur Qoidalar Aksiyani o'tkazish tartibi, shartlari, joyi va muddatlarini belgilab beradi.

2.2. Qoidalar Umumiy shartlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

2.3. Aksiya mavjud Mijozlarning sadoqat darajasini oshirishga, Bankka yangi Mijozlarni jalb qilishga, shuningdek, Bank Mahsulotlari va Mobil ilovasidan foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan.

2.4. Aksiya o'tkaziladigan hudud: O'zbekiston Respublikasining butun hududi.

2.5. Aksiyani o'tkazish davri: 2026-yil 8-maydan 2026-yil 31-dekabrgacha (shu jumladan). Aksiya Umumiy shartlarga muvofiq Bank tomonidan istalgan vaqtda to'xtatilishi mumkin.

2.6. Aksiya ishtirokchisining mazkur Qoidalarga binoan Bonuslar hisoblanishi ko'zda tutilgan shartlarni bajarishi uning Qoidalarga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.

2.7. Aksiyada ishtirok etish bepul.

3. Aksiyaning umumiy qoidalari

3.1. Aksiya doirasida Bank Aksiya ishtirokchisiga uning Bonus hisobvarag'iga o'tkaziladigan Bonuslarni olish imkoniyatini taqdim etadi.

3.2. Bank Aksiya ishtirokchilariga iSpace'da amalga oshirilgan Xaridlar uchun quyidagi miqdorda Bonuslar hisoblash huquqiga ega:

3.2.1. Xarid summasidan 5% (besh foiz).

3.3. Aksiya doirasida bir kalendar oyida hisoblanadigan bonuslarning maksimal miqdori 2 000 000 (ikki million) so'mni tashkil etadi.

4. Boshqa shartlar

4.1. Aksiya doirasida hisoblanadigan Bonuslarga nisbatan Umumiy shartlarning 4.9-bandida nazarda tutilgan bonuslarning eng ko'p miqdoriga oid cheklov qo'llanilmaydi.

4.2. Bonuslar Xarid amalga oshirilgan paytdan boshlab 14 (o'n to'rt) kungacha bo'lgan muddatda hisoblanadi.

4.3. Qoidalar Bankning saytida joylashtiriladi. Bank Qoidalarga bir tomonlama tartibda qo'shimchalar va/yoki o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Qoidalarga kiritiladigan o'zgartirishlar to'g'risidagi ma'lumotlar Bosh shartnomada nazarda tutilgan usullarda joylashtiriladi.

4.4. Bank quyidagi hollarda Aksiya ishtirokchisiga bildirishnoma yubormasdan va sabablarini tushuntirmasdan, Aksiya o'tkazilayotgan davrda hisoblangan Bonuslarni hisoblamaslik va/yoki bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi:

4.4.1. Bonuslarni hisoblash shartlari Qoidalar va/yoki Umumiy shartlarda nazarda tutilmagan usullar bilan bajarilgan hollarda;

4.4.2. Bank Aksiya ishtirokchisining harakati/harakatsizligini firibgarlik, vijdotsizlik deb topsa yoki qonunchilikni va/yoki Aksiyada ishtirok etish shartlarini boshqacha tarzda buzish deb hisoblasa, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: noto'g'ri ma'lumot taqdim etish, soxta yoki o'zganing ma'lumotlaridan foydalanish, soxta Xaridlarni amalga oshirish, noqonuniy ishtirok etish uchun texnik vositalardan foydalanish, Aksiya shartlarini manipulyatsiya qilish, cheklovlarni chetlab o'tishga urinish va boshqa g'ayriqonuniy harakatlar;

4.4.3. Bank Bonuslarni hisoblashdan avval Aksiya ishtirokchisidan Kartani yopish to'g'risidagi arizani qabul qilib olgan hollarda;

4.4.4. Mahsulot qaytarilganligi yoki xizmatdan voz kechilganligi sababli Xarid summasi Aksiya ishtirokchisining Hisobiga to'liq yoki qisman qaytarilganida.

4.5. Bank Aksiya ishtirokchisida Aksiyada qatnashishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, xarajatlar va har qanday boshqa chiqimlarni qoplamaydi hamda kompensatsiya qilmaydi.

4.6. Bank sotuvchi hisoblanmaydi va Texnika hamda Xizmatlarning sifati, iSpace'ning harakati yoki harakatsizligi, shuningdek, Aksiya doirasida iSpace bilan o'zaro munosabatlar natijasida Aksiya ishtirokchilarida yuzaga kelgan har qanday zarar, ziyon, yetkazilgan shikast yoki boshqa salbiy oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

Tovarlar va Xizmatlarning sifati, ularni qaytarish, almashtirish yoki tavsiflariga oid barcha da'volar Qonunchilikda belgilangan tartibda faqat iSpace'ga taqdim etiladi.

4.7. Aksiya shartlari Bankning kollegial boshqaruv organlari a'zolariga va boshqa xodimlariga o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda shaxsiy imtiyoz berishni yoki bunday imtiyozdan boshqa Aksiya ishtirokchilariga nisbatan uchinchi shaxslar foydasiga foydalanishni nazarda tutmaydi.

4.8. Aksiya doirasida hisoblanadigan bonuslar Bank bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan Aksiya ishtirokchisiga o'zining mansab majburiyatlarini bajarilganligi uchun mukofot tariqasida, shuningdek yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar yoki moddiy yordam uchun to'lov (haq) sifatida to'lanmaydi.

4.9. Aksiya lotereya, tavakkalchilikka asoslangan o'yin yoki garov hisoblanmaydi.

4.10. Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq barcha nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Bosh shartnomada nazarda tutilgan tartibda sudda ko'rib chiqilishi lozim.

4.11. Qoidalarda nazarda tutilmagan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

4.12. Aksiya ishtirokchisi Qoidalarni bilishi va ularga rioya qilishi shart.